



TARBIYALANUVCHILARNING KASBIY OID BILIM KO'NIKMALARINI CHET EL TAJRIASI ASOSIDA SHAKLLANTIRISH

M. Sh. Atahodjayeva

Andijon tumani 31 DMTT direktori

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarni kasbga asta-sekin qiziqtirish, ularning kasbiy mehnatga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otish, mehnat faoliyatining boshlang'ich ko'nikmalarini o'rgatish va mehnatsevarlikni rivojlantirish kerak. Tarbiyalanuvchilarni kattalar bilan birgalikda ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilgan holda kasbiy mehnatning ijtimoiy ahamiyatini anglab yetishlariga yordam berishi kerakligi keltirilgan.

Аннотация:

В этой статье необходимо постепенно заинтересовывать дошкольников к труду, пробуждать в них страсть к профессиональному труду, обучать основным навыкам труда и развивать трудолюбие. Утверждается, что детям следует помочь понять социальную значимость профессионального труда, вовлекая их в общественно-полезный труд вместе со взрослыми.

Abstract:

In this article, it is necessary to gradually interest preschoolers in work, awaken in them a passion for professional work, teach basic labor skills and develop diligence. It is argued that children should be helped to understand the social significance of professional work by involving them in socially useful work together with adults.

Kalit so'zlar: Tarbiyalanuvchilar, kasbiy mehnat, ko'nikma, atrof-muhit, o'yinlar, tarbiya, jarayon, axloqiy, faoliyat.

Ключевые слова: дети, профессиональная деятельность, умение, среда, игры, образование, процесс, нравственность, деятельность.

Key words: children, professional work, skill, environment, games, education, process, moral, activity.

Mehnatning aqliy tomondan rivojlantirishdagi ahamiyati shundaki, mehnat jarayonidaular borliqni faol anglay boshlaydilar. Maktabgacha yoshdan boshlab tarbiyalanuvchilarga mehnat tarbiyasini berish ularni estetik va jismoniy jihatdan ham rivojlantiradi. Yosh avlodga berish masalasi hozirgi davrda eng dolzarb mavzu hisoblanadi. Mehnat har bir yosh guruhidagi tarbiyalanuvchilarning o‘ziga xos xususiyatlarni etiborga olib tashkil etiladi, unga to‘g‘ri rahbarlik qilgandagina etarli natijaga erishish mumkin. Maktabgacha yoshidagi tarbiyalanuvchilarning o‘ziga xos tomonlari ko‘pgina olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda keng o‘rganib chiqilgan.

Singapur tajribasi: Singapurdagi bolalar bog‘chalari xususiy bo‘lib, ulardan ayrimlari diniy tashkilotlari yoki biznes-fondlar tomonidan boshqariladi. Singapurda maktabgacha ta‘lim 3 yoshdan boshlanib, 6 yoshgacha davom etadi. Bolalar bog‘chalarida bolalarni muloqotga, hisob-kitobga, o‘qish asoslariga o‘rgatiladi. Bu erda ona tili bo‘lgan - xitoy va malay tilidan tashqari barcha bolalar ingliz tilini ham o‘rganadilar. Boshlang‘ich maktabda bolalar 6 yoshdan boshlab o‘qiydilar. Ta‘lim olish hamma uchun majburiy va 2 bosqichga bo‘lingan: asosiy va yo‘naltirilgan. Asosiy bosqich 1-4 sinflardan iborat bo‘lib, bunda tillar, matematika, fuqarolik huquqi asoslari, rasm, musiqa va jismoniy madaniyat o‘rganiladi. Singapur ta‘lim tizimini rivojlanish dinamikasini o‘rgangan olgan holda biz quyidagi xulosaga keldik: O‘zbekiston ta‘limining ijtimoiy muammolari, ta‘limtarbiyada umumbashariy, milliy va individual omillarni, rivojlangan mamlakatlar ta‘lim yutuqlaridan foydalangan holda tabaqlashtirish, ta‘lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotining umumjahon ilg‘or tajribasini, zamonaviy pedagogik g‘oyalarini tanlash va ishlab chiqish kerak.

Shvetsiya tajribasi: Maktabgacha ta‘lim tizimi – bu zamonaviy jamiyatning o‘ziga xosligi va uning rivojlanishining eng muhim omillaridan biridir. Aynan shu sababli rivojlangan mamlakatlar maktabgacha ta‘lim tizimini rivojlantirishga alohida e’tibor beradilar, zero bu aholining ishchi kuchiga barqaror jalb etilishiga, shuningdek bolalarning tegishlicha jismoniy va ruhiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Shvetsiyadagi bolalar bog‘chalari 1 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan tarbiyalanuvchilarni qabul qiladi va 6:00 dan 19:00 gacha xizmat ko‘rsatadi.





Shvetsiya maktabgacha muassasasida ta'lim bolalarda bilimlar va qadriyatlar hamda butun umrlari davomida o'qishga istak shakllanishiga qaratilgan. Asosiy e'tibor birgalikdagi o'yinlar, bag'ri kenglik va boshqalarga e'tiborlilik kabi qadriyatlarga qaratiladi. Gender pedagogika tobora kuchli dolzarblik kasb etmoqda – bolalarda, jinsiga qaramay, barobar imkoniyatlar bo'lishi uchun, o'quv jarayonida gender stereotiplariga qarshi ishlar olib borilmoqda. Bundan tashqari, Shvetsiyada bolalar bog'chalari tarbiyachilarining taxminan 5 foizini erkaklar tashkil qiladi. Bu kam bo'lsa-da, harqalay, boshqa mamlakatlardagiga qaraganda ancha yuqori ko'rsatkich. MTTda pedagog bo'lish uchun oliy ma'lumot va **Ta'lim vazirligidan litsenziya bo'lishi kerak.** Bolalar parvarishi bo'yicha xodimlar o'rta-maxsus ma'lumotga ega bo'ladilar va kundalik taomillar uchun javobgarlikni zimmalariga oladilar. Bolalar imkoniyat bo'ldi deguncha, hatto qish chillasida ham tashqarida o'ynaydilar. Shuningdek, "ochiq osmon ostidagi" maktabgacha muassasalar ham shuhrat qozongan, ularda, ob-havodon qat'iy nazar, bolalar qariyb har doim tashqarida bo'ladilar.

Fillandiya tajribasi: Ota-onalar xohishiga ko'ra bolalar 3 yoshgacha oila davrasida qolishi mumkin, ammo aksariyat hollarda ota-onalar mehnat faoliyati bilan band bo'lganligi sababli erta yoshdan MTTlarga farzandlarini berishadi. Finlyandiyada bolalar uchun uzlusiz ta'lim sayohati Finlyandiya maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshlanadi. Uy vazifasi yoki majburiy standartlashtirilgan testlarsiz ular vaqtlarini o'ynash, kashf qilish va o'rganishni o'rganishga sarflashadi. Natijada Finlyandiya 100% savodxonlik darajasiga ega, Xalqaro talabalarni baholash dasturi (PISA)da eng yaxshi natijalarga erishgan va mакtabga borishni yaxshi ko'radigan bolalarga egadavlat hisoblanadi.

Kasbga yo'naltishda- Fillandiyada bolalar va tarbiyachilarni shaxs sifatida hurmat qilishadi. Bolalarning o'ziga xos shaxsiyatlariva individualligiqadrlanadi. Ularga kichik nihollar sifatida qarashadi vaularo'zları yoqtirgan yo'nalishda o'sishiga zamin yaratishadi. Bundan tashqari, tarbiyachilarga katta ishonchva o'z bolalariga ta'lim berishning eng yaxshi usulini tanlash avtonomiysi berilgan. Ular keng qamrovli treninglar, shuningdek, yuqori sifatli o'quv resurslari va vositalari bilan ta'minlangan bo'lishadi. Finlyandiyadagi maktabgacha ta'lim -bu har bir bolaga xavfsiz, kuchli va qiziqarli ta'lim muhitidayaxshi shaxs bo'lib yetishlariga yordam beradigan hamkorlikdagi sa'y-harakatlar tizimidir.

Bizda esa bolalarni kattalar dunyosi bilan tanishtirish orqali kasbga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish kattalar va tengdoshlari bilan o‘zaro munosabatlarining ijtimoiy tajribasini to‘plashga, bir-biriga hurmat va o‘zaro do‘stona munosabatlarni shakllantirish orqali bирgalikda mehnat qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bundan tashqari bolalar o‘zlarining va kattalarning hissiy holatini tushunishga, o‘z histuyg‘ularini mimika, so‘z, imo-ishoralar orqali ifoda etishga o‘rganadilar. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni dastlabki kasb-hunarga yo’naltirish o‘yin va mashg‘ulotlar davomida ularning tug‘ma layoqati, moyilligi va qobiliyatlarining ilk nishonlarini o‘rganib borishi bilan mehnatga ijodiy munosabatini, tengdoshlari va kattalarga yordamga tayyorgarlik xususiyatlarini takomillashtirish turli kasb-hunar to‘g‘risida yoshiga mos qilib ma'lumotlar berish yo‘nalishlarida olib boriladi. Bunda albatta maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning fiziologik, individual-psixologik xususiyatlari hisobga olinishi kerak. Ma'lumki, bu yoshda idrok, diqqat, xotira va tafakkur, nutq ba tasavvur sezilarli darajada shakllangan va shakllanishi faol ketayotgan davr hisoblanadi. Bu maktabgacha ta’lim tarbiya-lanuvchisini maqsadli va ongli xatti-harakati hamda berilayotgan ma'lumotlarni tushunishi, o‘qish imkonini beradi. Shuningdek, bu yoshda o‘z xatti-harakatini nazorat qilish, o‘zligini baholashning soddaroq bo‘lsada ko‘rinishlarini bolalarda kuzatish mumkin.

Ro‘lli o‘yinlar orqali tarbiyalanuvchini kasbga yo‘naltirish. Rolli o‘yinlar har doim bolalarga yoqqan va bo‘ladi. Axir, bunday o‘yin jarayonida siz har qanday odamga aylanishingiz mumkin: shifokor, haydovchi, oshpaz, sartarosh yoki boshqa kasbni toping. Shuningdek, rolli o‘yinlar ikki yoshdan uch yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun mos keladi., shuningdek, katta yoshdagi bolalar, bu ularni ikkala yosh uchun ham universal qiladi, shuningdek, katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilar uchun. Rolli o‘yinda asosiy rolni tarbiyalanuvchi olishi kerak. Va chaqaloq hamma narsani qiladi, tasavvur qilish, uning kattalar ekanligi. Biroq, boshlang‘ich maktabgacha yoshdagi bolalar bilan kasbga yo‘naltirish maqsadida rolli o‘yinlar shaklida mashg‘ulotlar o‘tkazilsa., keyin buni hisobga olish kerak, Bu erda kattalarning bevosita yordami zarur. Uch yoshli bola rol o‘ynash uchun unchalik tariq emas. Lekin bilishingiz kerak, buni qilish ancha oson bo‘ladi, agar chaqaloq kasbga mos keladigan xususiyatlarga ega bo‘lsa. Ammo bu fazilatlarning barchasi bolaga allaqachon tanish bo‘lishi kerak.. Bunday o‘yinlar jarayonida





tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga aytib berishi kerak, ularning qahramoni qanday fazilatlar va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.

Bolalar mehnatining muhim belgisi ularning ma’lum maqsadga yo‘naltirilganligi. Kichik maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning mehnati inson jarayonga oid xarakat bo‘lib, u faqat kattalarning rahbarligi natijasida amalga oshirilishi mumkin. Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni o‘z faolyatlarini taxminiy rejalshtirib olishlariga o‘rgatishi va ular faolyatiga rahbarlik qilib olishi lozim.

Xulosa shuki, Maktabgacha yosh davrida kasbiy mehnatga oid mashg‘ulotlar o‘yinlar orqali o‘zaro bog`liq holda kechadi, biroq har qanday holda ham tarbiyalanuvchilar mehnatini o‘yinga aylantirish, ularning farqini yo‘qqa chiqarish noto‘g`ri bo‘lar edi. Tarbiyachilar va ota—onalar ta’sirida asta—sekin bolalar mehnati o‘z vazifasi, mazmuni, metodi va tashkil etillishi bilan mustaqil faolyat sifatida ajratib boriladi. Mehnat qilish muntazam tarzda bo‘lib unda hamma tarbiyalanuvchilar ishtirok etsa va kattalar mehnati bilan tanishtirib borilsa, u tarbiya vositasiga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boboyorova. G. Bolalarni maktabga tayyorlashda interfaol usullardan foydalanish. Maktabgacha ta’lim j., 2007. 6-son. -14 b.
2. Komil Jalilov –journalist. “Finlandiya tajribasi O‘zbekistonning ta’lim muommolarini hal qila oladimi?”, “Gazeta.uz” 2022 yil 8-noyabr.
3. <https://muhaz.org/shvetsiya-maktabgacha-talim-tizimi-reja.html>
4. Kutsakova L.V. Bolalar bog,,chasida Mehnat tarbiyasi: 3-7 yoshli bolalar bilan ishslash uchun: Uslubiy qo,,llanma. Moskva: Mosaic-Synthesis, 2007. 135 p. (Bolalar bog,,chasida ta’lim va tarbiya dasturi kutubxonasi)
5. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo,,yiladigan davlat talablari. –T:, 2018 yil
6. Z.B.Qodirov. Komil inson tarbiyasining pedagogik asarlari. T-2001.